



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



KITOBAT VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Abbosjon Mirzoraximov

Tarix fanlari nomzodi,

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: kitobat, toshbosma, qo'lyozma, xattotlik, qog'oz ishlab chiqarish, kitob bosish texnologiyasi, ksilografiya, O'rta Osiyo.

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyoda kitobat san'atining paydo bo'lishi, shakllanish bosqichlari va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif toshbosma usulida kitob bosishning vujudga kelishi, ushbu jarayonning asosiy bosqichlari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyati haqida ma'lumot beradi. Qog'oz ishlab chiqarishning boshlanishi, uning turlari va rivojlanish jarayonini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganadi. Shuningdek, maqolada O'rta Osiyoda xattotlik va kitobat maktablarining yuzaga kelishi, bu san'atning kamolotga yetishi va kitob bosish texnologiyalari taraqqiyotiga ta'siri ham yoritilgan. Kitob bosishning turli usullari, xususan, ksilografiya va toshbosma texnologiyalari haqidagi ilmiy izlanishlar ham keltirilgan. Maqola, shuningdek, kitob bosishning O'rta Osiyo va Yevropa madaniyatidagi o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan.

WRITING AND ITS DEVELOPMENT STAGES

Abbosjon Mirzorakhimov

Candidate of Historical Sciences,

Kamoliddin Behzod National Institute of Art and Design

ABOUT THE ARTICLE

Keywords: bookmaking, lithography, manuscript, calligraphy, paper production, printing technology, xylography, Central Asia.

Annotation: The article analyzes the emergence, stages of formation, and developmental features of the art of bookmaking in Central Asia. The author provides information on the advent of lithographic printing, its key stages, and their socio-political and cultural significance. The study explores the historical perspective on the beginnings of paper production, its types, and development processes. Additionally, the article highlights the emergence of

calligraphy and bookmaking schools in Central Asia, the perfection of this art, and its influence on the advancement of printing technologies. Various printing methods, including xylography and lithography, are also examined. The article further discusses the role and significance of book printing in the cultural contexts of Central Asia and Europe.

ПИСЬМЕННОСТЬ И ЭТАПЫ ЕЁ РАЗВИТИЯ

Аббосджон Мирзорахимов

Кандидат исторических наук,

Национальный институт художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: книгоиздание, литография, рукопись, каллиграфия, производство бумаги, технология печати, ксилография, Центральная Азия.

Аннотация: В статье анализируется возникновение, этапы формирования и особенности развития искусства книгоиздания в Центральной Азии. Автор предоставляет информацию о появлении литографической печати, её ключевых этапах и их социально-политическом и культурном значении. Исследование охватывает исторический взгляд на начало производства бумаги, её виды и процессы развития. Кроме того, в статье освещается появление школ каллиграфии и книгоиздания в Центральной Азии, расцвет этого искусства и его влияние на развитие технологий печати. Рассмотрены различные методы печати, включая ксилографию и литографию. В статье также уделяется внимание роли и значению книгоиздания в культурных контекстах Центральной Азии и Европы.

KIRISH.

Oʻrta Osiyoda toshbosma usulda kitob bosishning vujudga kelishi, bu jarayonning asosiy bosqichlari va sabablarini chuqur anglab tahlil qilish uchun avvalo, kitobat va uning rivojlanish bosqichlari haqida tasavvurga ega boʻlish lozim. Albatta, bu borada jahon kitobat sohasidagi oʻzgarishlar, mintaqaga bevosita taʼsir koʻrsatishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Shu jihatdan Oʻrta Osiyo toshbosma kitoblari tarixini tadqiq etishdan avval, kitobat tarixiga qisqacha toʻxtalib oʻtish oʻrinlidir.

Kitob bosishni kashf etgunga qadar insoniyat yozuv uchun turli xil narsalardan foydalangan. Qogʻozning paydo boʻlishi kitobat tarixida katta siljish boʻlgan. Qogʻoz dastlab Xitoyda vujudga kelgan. Lekin, mavjud maʼlumotlar keyingi davrda Yevropa miqyosida keng tarqalgan “latta qogʻoz”ning aynan Turkistonda paydo boʻlganligini tasdiqlaydi. Bu haqda mashhur qogʻoz tarixshunosi N.P. Lixachev shunday yozadi: “Shu xildagi ixtirolarning koʻpchiligi singari, qogʻozning ixtiro qilingan vaqti aniq maʼlum emas. Iso paygʻambar tavalludidan ikki asr ilgariyoq Xitoyda ipak va bambuk tolasidan qogʻoz tayyorlab kelishgan, lekin bu qogʻoz oʻz tarkibi va tayyorlanish jihatidan umum Yevropa miqyosida kanop va zigʻir tolasidan tayyorlab

kelinayotgan qog'ozdan keskin farq qiladi. "Latta qog'oz"ning haqiqiy vatani Turkistondir, bu qog'oz Turkistondan Suriya, Misrga tarqalgan, Janubiy va g'arbiy Yevropaga o'tgan"¹.

Shunday qilib qog'oz milodiy II asrda Xitoyda, VIII asrda Samarqandda, XII – XIII asrdan boshlab Yevropada ishlab chiqarila boshlangan².

Garchi, qog'ozning ixtiro etilishi kitoblarning ko'payishiga, ularning sifatini yaxshilashga imkon bergan bo'lsada, uzoq vaqt, ya'ni antik davrdan o'rta asrlargacha kitob qo'lda tayyorlangan.

O'rta Osiyoda kitob o'tmish haqida qimmatli ma'lumot beruvchi manba sifatida juda qadim zamondan mavjud bo'lib, uni tayyorlash bilan tajribali xattot va kotiblar shug'ullanishgan. Qo'lyozma kitoblarni tayyorlashga juda ko'p vaqt va mehnat sarflangan, shunga qaramay kitob tayyorlash san'at darajasiga ko'tarilgan. Kitob yozish, ko'chirish va uni tayyorlash bilan ko'plab odamlar shug'ullanishi natijasida kitobatning butun bir maktabi vujudga kelgan.

VIII asrda O'rta Osiyo Arab xalifaligi tomonidan egallanishi natijasida islom dini, arab tili va yozuvi, urf-odatlarining kirib kelishi o'z navbatida kitobat sohasiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Bu davrga kelib kitob yozishga bo'lgan qiziqishning ortishi, yozuvchilar, shoirlar, kotiblar, muqovasozlar, qog'ozchilar, naqqoshlar davrasining kengayishiga olib kelgan. Aynan shu vaqtdan boshlab kitoblarda nisbatan murakkab naqshlar, yangi badiiy bezaklar qo'llanila boshlangan. Kitoblarning muqovalariga alohida e'tibor berilib, nomlarini yozishda oltin suvidan foydalanila boshlangan.

XIV asrning boshlariga kelganda O'rta Osiyoda xattotlik san'ati misli ko'rilmagan darajaga yetib, bu usulda kitob tayyorlash XX asr boshlarigacha davom etgan³. Xattotlik usulida kitob tayyorlash nihoyatda og'ir, mashaqqatli va ma'suliyatli ish edi. M. Rustamovning ta'kidlashicha, badiiy qo'lyozma uchun eng sifatli qog'oz ishlatilgan. Qog'oz yarqirab turadigan darajada silliq bo'lishi uchun orqa-oldiga bug'doy unidan tayyorlangan maxsus shirachdan (*bug'doy unidan tayyorlangan yelim – M.A*) yupqa surtib, soyada quritilgan. Qo'lyozma sahifalariga mo'ljallangan qog'ozlar har xil rangdagi katta hoshiya ichiga olinib, kitob matni bir-biriga monand bo'yoqlar ustiga tushirilgan. Kitobning muqovasi karton yoki charmdan ishlangan, ko'proq qalin karton ishlatilgan. Har bir qo'lyozma kitob bir necha mutaxassis qo'lidan o'tgan. Avvalo, qog'ozrez (*qog'oz tayyorlovchi usta – M.A*) kitob uchun maxsus nav va o'lchamdagi qog'ozni tayyorlab bergan, keyin xattot bo'lajak kitob sahifalariga qanchadan va qay tartibda, qaysi usulda xat yozishni, qayerda qancha ochiq joy qoldirishni rejalashtirib olar, sahifalarga bilinar bilinmas chiziqlar tortar, so'ngra qunt bilan yozishga kirishar edi. Butun qo'lyozma yoki uning ma'lum qismi yozib bo'linganidan keyin xattot uni lavvohga (*Kitob sahifalarini turli xil chiziqlar bilan bezovchi – M.A*) topshirgan. Lavvoh bo'lsa kitob sahifalarini xilma-xil chiziqlar, hoshiyalar, doiralar bilan bezagan. Ba'zi joylarga rangdor qog'ozdan qirqib yopishtirgan. Lavvoh o'z ishini bitirgandan so'ng qo'lyozma musavvirga o'tgan. Musavvir xattot qoldirgan joylarga turli xil rasmlar chizgan. Eng so'ngida qo'lyozma muqovasozga kelib, kitob bo'lib chiqar edi⁴.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek kitobga bo'lgan ehtiyoj asrlar davomida qo'lyozma kitoblar hisobiga qondirib kelingan, lekin bu kitoblarning tayyorlanishidagi qiyinchiliklar ularni ko'plab

¹ Малкин И.Т. Қоғоз тарихи.- СССР ФА нашриёти, 1940.- 196бет.

² Малкин И.Т. Қоғоз тарихи... – 25 б.

³ Бу ҳақида А. Муродовнинг, Ўрта Осиёда хаттотлик тарихидан. – Т., 1967. Канд.диссер. батаф. қаранг.

⁴ Рустамов М. Ўзбек китоби... – 19 б.

nusxada tarqalishiga imkon bermagan. Shu sababli, bu borada tinimsiz izlanishlar olib borilib, kitob bosish kashf etilgan.

Kitob bosishning dastlabki usullari va texnologiyasi tadqiq etilayotgan mavzuni mazmun-mohiyati haqida ma'lum darajada tasavvur beradi. Shu bois toshbosmagacha bo'lgan kitob bosish usullari texnologisini ko'rib o'tish, toshbosma texnologiyasi mohiyatini chuqurroq tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Toshbosma texnologiyasining vujudga kelishida undan oldin mavjud bo'lgan kitob bosish texnologiyalari katta rol o'ynagan.

Kitob bosishning vujudga kelishi insoniyatning buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lib, ilm-fanning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. L. Tranisning ta'kidlashicha, milodiy 868-yilda Xitoy ustasi Van Sze kitob bosish uchun yog'och gravyuradan foydalangan. Kitob bosishning bunday usuli ksilografiya⁵ deb atalgan, unda kitob bosish texnologiyasi juda oddiy, lekin mashaqqatli bo'lgan. Bu usulda matn bilan suratlarning ko'zguga tushadigan aksi yog'och taxtaga tushirilgan, shtrixlar orasidagi joylar o'yilgan. So'ngra taxtaning qavariq joyiga bo'yoq surkab, unga qog'oz yoki pergament varag'i mahkam yopishtirilgan. Shunda tasvirning nusxasi to'g'ri chiqqan. Ksilografiyada varaqning bir tomoniga harflar yoki suratlar bosilgan⁶. Dunyodagi birinchi bosma kitob 868-yilda ksilografiya usulida bosilgan bo'lib, "Olmos Sutra"⁷ deb nomlangan. Kitob xitoy tiliga tarjima qilingan hind buddaviy diniy afsonalari to'plami bo'lib, yetti sahifadan, ya'ni olti bet matn va bir bet rasmdan iborat edi.

Qo'lyozmaga nisbatan ksilografiyaning ko'pgina afzalliklari mavjud bo'lib, qisqa vaqt ichida ko'plab bir xildagi nusxalarni olish imkonini bergan. Shuningdek, ksilografiyaning noqulay tomonlari ham bor edi. Birinchidan, matn va suratlarning teskari tasvirini o'yishga juda ko'p vaqt va mehnat ketgan, ikkinchidan, har bir sahifa uchun alohida taxta kerak bo'lgan, shu sababli ksilografiya bo'rtma harflar bilan almashtirilgan. Bu ishni birinchi marta XI asrning birinchi yarimida Xitoy temirchisi Bi Shen amalga oshirgan. U 1041-48-yillarda bosma mashina yaratgan. Bi Shen loydan bo'rtma belgilar yasab, ularni pishirgan va bosma qoliplar tayyorlagan. Bosilgandan keyin qoliplardan yana foydalanish imkoni yaratilgan⁸.

L. Tranisning ma'lumotiga ko'ra, Yevropada kitob bosishning ksilografiya usuli XIV asrdayoq ma'lum bo'lib, XV asr boshlarida lotin tilining qisqacha grammatikasi bosilib chiqqan. Uning taxmin qilishicha kitob bosish uyg'urlardan Gollandiyaga o'tgan, arman savdogarlari esa uni Germaniyaga olib borishgan.

Germaniyada kitob bosish mashinasini takomillashtirish borasida Iogann Gutenberg (1400-1468) bir qator ishlarni olib borgan*. U o'sha davr uchun eng samarali bo'lgan kitob bosish usuliga asos solgan edi.

I. Gutenberg ksilografiyadan farqli ravishda kitobni tez va oson bosib chiqarish mumkin bo'lgan bosma mashina ixtiro qilgan. U qo'rg'oshin qotishmasidan quyilgan bir xil bo'lgan harflar tayyorlash

⁵ Ксилография сўзи юнончадан олинган бўлиб ёғочга ишланган гравюрадир. Энциклопедик луғат.— Тошкент., 1989. — Б. 428.

⁶ Транис Л. Китоблар оламига саёҳат...— Б. 9.

⁷ Сутра муқаддас китоб демақдир. Израйилевич Г. Улуғ мўжиза....— Б. 8.

⁸ Транис Л. Китоблар оламига саёҳат...— Б. 10.

* Р. Маҳмудова ўз тадқиқотида И. Гутенберг машинасини тошбосма усули деб таъкидлайди ammo тошбосма усулига 1798 йилда асос солинган. Гутенберг усули металлбосма деб юритилади.

imkonini beruvchi asbobni kashf etgan. I. Gutenberg metall-qolipga bo'rtma harflarning teskari tasvirini o'yib, uni yumshoqroq metall plastinkaga bosgan. Plastinka quyma qolipchaga solinib, qolipcha eritilgan va metall bilan to'ldirilgan, natijada harflarning ko'chirma nusxasi hosil bo'lgan⁹.

I. Gutenberg bir-biridan mustaqil harf shakllarini vujudga keltirgan edi. Uning yaratgan bosma mashinasi qog'ozning har ikki tomoniga matn bosish va soatiga yuzlab nusxa olish imkonini berar edi. Bu mashinada qo'l bilan aylantirilib kitob bosilgan.

I. Gutenberg dastlab kichik-kichik varaqalar bosgan. Shulardan eng qadimgisi 1445-yilda bosilgan. Birinchi eng katta kitob Tavrot uch yil mobaynida bosilib, 1451-yilda tayyor bo'lgan, u ikki hajmli bo'lib 641 varaqdan iborat edi¹⁰. I. Gutenbergning ixtirosi tez orada Yevropa mamlakatlariga va butun dunyoga tarqalgan.

L. Tranisning yozishicha, kitob bosish 1465-yil Italiyada, 1468-yil Shveysariyada, 1469-yil Niderlandiyada, 1470-yil Fransiyada, 1476-yil Polshada, 1478-yil Chexiyada vujudga kelgan. Juda qisqa davr ichida kitob bosish jarayoni kengayib, XV asrning oxirlariga kelib Yevropadagi 246 ta shaharda 1000 dan ziyod bosmaxonalar faoliyat ko'rsatgan.

Birinchi slavyan bosmaxonasi 1491-yili Krakov shahrida Sh. Fiol tomonidan tashkil etilgan¹¹. XVI asrning 20 yillarida Vilnyusda F. Sokrina (1490-1551y) bosmaxona tashkil etgan edi¹².

Moskvada taxminan 1553-yilda "Anonim" deb nomlangan bosmaxona tashkil topgan va mazkur bosmaxona 1555-yilda dastlabki kitob "Injil"ni nashr etgan. Mazkur kitobda nashr qilingan yili va matbaachisining nomi ko'rsatilmagan¹³. Bosmaxona 12 yil ishlagan va yong'in vaqtida yonib ketgan.

1553-yilda Rossiya podshosi Ivan Grozniyning farmoni bilan bosmaxona qurishga kirishilgan. Bosmaxona 1563-yilda qurib bitirilgan. I. Fyodorov yordamchisi Petr Metislaves bilan birgalikda 1563-yil 19-aprelda xristian diniy ta'limotiga oid "Apostol"¹⁴ kitobini bosishga kirishganlar. Kitob 1564-yil 1 martda bosmadan chiqqan. Ana shu kun Rossiyada kitob bosishning vujudga kelgan kuni hisoblanadi¹⁵.

I. Gutenberg yaratgan mashina dunyoning barcha davlatlariga tarqalgan bo'lsada, ishlash jarayoni qiyin, tan narxi qimmat edi. Ayniqsa, bu usulda kitoblarga rasm bosish o'ta mashaqqatli bo'lib, avval rasm metallga chizilar keyin bosilar edi, bunda nashrning sifati past chiqar, uning ustiga metallning narxi qimmat turar edi. Shu sababli ham I. Gutenberg mashinasi vaqti kelib o'z o'rnini toshbosma usuliga bo'shatib bergan.

Toshbosma usulida kitob bosish 1797-yilda Alozy Zenefelder tomonidan yaratilgan¹⁶. Toshbosma (litografiya)¹⁷ kitob bosishning shunday turiki, bunda toshning sirti bosma forma

⁹ Махмудова Р. Тошбосма асарлар ва уларнинг... – Б. 18.; Транис Л. Китоблар оламига саёҳат... – Б. 11.

¹⁰ "Туркистон вилоятининг газети", 1900 йил, 26 сон.

¹¹ Энциклопедик луғат. – Тошкент., 1988. – Б.390.

¹² Ўша жойда.

¹³ Транис Л. Китоблар оламига саёҳат... – Б. 12.

¹⁴ Исо шогирдлари хавворийлар тўғрисида баҳс этувчи диний китоб.

¹⁵ Израйилевич Г. Улуғ мўжиза... – Б. 8.; Энциклопедик луғат. – Тошкент., 1988. – 390 б.

¹⁶ П. Суворов. Искусство литографии... – Б.21.; Энциклопедик луғат. – Тошкент., 1988. – Б. 464.; Тошбосма. // Растар. – Т., 1999 йил.

bo'lib xizmat qilgan, matn yoki tasvir toshbosma toshiga quyuq toshbosma tushi yoki toshbosma qalami bilan tushirilgan. Toshbosma XIX asrda keng tarqalib, o'zidan oldingi kitob bosish usullarini deyarli siqib chiqargan. Jumladan, bu usulda kitob bosish dastlab Germaniyada XVIII asrning oxirlarida, Rossiyada XIX asr boshlariga to'g'ri keladi¹⁸.

Umuman olganda, Rossiyada toshbosma usulida kitob bosishning vujudga kelishi Peterburgda 1816-yil, Orenburgda 1832-yil, Boku va Bog'chasaroyda XIX asrning 70-80 yillariga to'g'ri keladi. Sharqda esa birinchi toshbosma 1832-yilda Eronda vujudga kelgan. O'rta Osiyoda birinchi bor 1874-yil Xivada tashkil qilingan.¹⁹

XX asr boshlariga kelib toshbosma usulini "ofset bosma" usuli siqib chiqardi. Ofset bosma texnologiyasi yassi bosmaning bir turi bo'lib bo'yoq bosma qolipdan rezina sirtiga o'tgan, undan esa qog'ozga ko'chirilgan. Bunda qog'oz sirtiga yupqa bo'yoq qatlamlari bilan yozuv va tasvir tushirish imkoni tug'iladi. Barcha turdagi nashrlarni bosishda qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida insoniyatning ilm-fanga bo'lgan intilishi natijasida qog'oz, qalam va kitoblar tayyorlash kashf etilgan. Bu sohadagi o'zgarishlar tinimsiz davom etib, o'rta asrlarda kitob tayyorlashning butun bir maktabi vujudga kelib, kitobat san'at darajasiga ko'tarilgan. Kitobga bo'lgan qiziqish, kitobat sohasiga doir kasblarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kitobat sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazib turganligini ko'rishimiz mumkin. Kitobat sohasidagi o'zgarishlar bir hududda qolib ketmasdan balki tezlik bilan tarqalishi soha rivojida hal qiluvchi rol o'ynadi. Buning natijasida kitob bosish usullari butun dunyo bo'ylab tarqalgan. Har bir kitob bosish usuli o'zidan oldingi usullarni o'zlashtirib, yangi jihatlari bilan ajralib turganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Dunyoda kitob bosishning vujudga kelishi ilm-fan, madaniyatning rivojiga ulkan ta'sirini o'tkazish bilan bir qatorda xalqlar o'rtasida madaniy aloqalarni kuchaytirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Малкин И.Т. Қоғоз тарихи. – СССР ФА нашриёти, 1940. – 19 б
2. Израйилевич Г. Улуғ мўжиза...– Б. 8.; Энциклопедик луғат.- Тошкент., 1988. – 390 б.
3. П.Суворов. Искусство литографии...– Б.21.; Энциклопедик луғат. – Тошкент., 1988. – Б. 464.; Тошбосма. // Растар.– Т., 1999 йил.
4. Ҳамдамов П. Ўрта Осиёда совет китоб нашриётининг пайдо бўлиши. – Т., 1966. – 1480 б.

¹⁷ Литография сўзи юнунча бўлиб, Литос"– тош ва графис"– ёзаман демакдир.; Энциклопедик луғат. – Тошкент. – Б. 464 ; Р. Маҳмудова Тошбосма асарлар...– Б. 5.

¹⁸ Суворов П.И. Искусство литографии... – Б. 16.; Шеглова О.П. Иранская литографированная... – С.15.

¹⁹ Шеглова О.П. Иранская литографированная книга.... – С.25.